

MIRSIDDIXON HASHMAT BUXORIYNING HUJJATLI ASARLARI TAVSIFI VA TAHLILI

Ilhom Abdusalomovich ESHONQULOV

dotsent

филология фанлари номзоди

Termiz davlat universiteti

Termiz, O'zbekiston

E-mail: ilhom_eshonzoda@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-3129-1895>

Annotatsiya

Mazkur maqola Mirsiddiqxon Hashmat Buxoriyning hujjatli asarlarini tavsiflash, tasniflash va ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari xazinasida saqlanayotgan qo'lyozmalar asosida muallif asarlarining mazmuniy, janriy, tarkibiy, matnshunoslik va kodikologik xususiyatlari tahlil qilingan. Asosiy e'tibor nujum (astronomiya), taqvimshunoslik, tarix, tazkiranavislik, tarjimai holnavislik hamda hujjatiy majmualarga oid qo'lyozmalarga qaratilgan bo'lib, ularning tarixshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik uchun qimmatli manba sifatidagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari Mirsiddiqxon Hashmatning hujjatiy merosi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Buxoro amirligining ilmiy, adabiy va madaniy muhitini o'rganish, shuningdek, kitobat an'analari, aniq fanlar taraqqiyoti hamda davr ilmiy tafakkurining shakllanish jarayonlarini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tayanch so'zlar: Mirsiddiqxon Hashmat Buxoriy, hujjatli asarlar, sharq qo'lyozmalari, matnshunoslik, manbashunoslik, nujum ilmi, taqvimshunoslik, tazkiranavislik, Buxoro amirligi, yozma meros.

ХАРАКТЕРИСТИКА И АНАЛИЗ ДОКУМЕНТАЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ МИРСИДДИХОНА ХАШМАТА БУХАРИ

Ильхом Абдусаламович ЭШОНКУЛОВ

Доцент

Кандидат филологических наук

Термезский государственный университет Термез, Узбекистан

Аннотация

Настоящая статья посвящена описанию, классификации и научному анализу документальных произведений Мирсиддикхона Хашмата Бухари. Исследование основано на изучении рукописей, хранящихся в Фонде восточных рукописей имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан. В работе проанализированы содержательные, жанровые, структурные, текстологические и кодикологические особенности произведений автора. Основное внимание уделено рукописям, посвящённым нуджуму (астрономии), календареведению, истории, тазкираписанию, биографистике, а также документальным сборникам. Обоснована их значимость как ценных источников для историографии, источниковедения и

текстологии. Результаты исследования свидетельствуют о том, что документальное наследие Мирсиддикхона Хашмата представляет собой важный научный источник для изучения научной, литературной и культурной среды Бухарского эмирата конца XIX — начала XX века, а также процессов формирования традиций книжной культуры, развития точных наук и эволюции научного мышления рассматриваемой эпохи.

Ключевые слова: Мирсиддикхон Хашмати Бухари, документальные произведения, восточные рукописи, текстология, источниковедение, астрономия, календареведение, тазкира, Бухарский эмират, письменное наследие.

Mirsiddiqxon Hashmat Buxoriyning qo‘lyozma asarlari XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi ilmiy hamda adabiy merosning muhim manbalari hisoblanadi. Uning merosi adabiyot, tarix, nujum (astronomiya), taqvimshunoslik va tazkiranavislik kabi turli sohalarni qamrab olgan bo‘lib, muallifning chuqur bilim sohibi ekani hamda Buxoroning ilmiy va madaniy hayotida faol ishtirok etganini yaqqol namoyon etadi.

Quyida Mirsiddiqxon Hashmatning bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalari fondida saqlanayotgan turli mavzularga oid ayrim asarlarining tavsifi va ilmiy tahlili keltiriladi.

2677-raqam ostida saqlanayotgan va «Majmuayi zoijahoi ahkomi nujum» nomi bilan ma’lum bo‘lgan qo‘lyozma Mirsiddiqxon Hashmatning asarlaridan biri hisoblanadi. Asar mazmunini nujum xususiyatiga ega bo‘lgan qaydlar hamda xotiralar majmuasi tashkil etadi. Uning tarkibida XIV asrdan XX asr boshlarigacha bo‘lgan turli tarixiy voqealarga oid zoyichalar va hisob-kitoblar, shuningdek, sayyoralarning joylashuvi va harakati, falak burjlari hamda nujum ilmiga doir boshqa unsurlar haqida turli tarixiy davrlarga tegishli ma’lumotlar jamlangan. Shu jihatdan mazkur qo‘lyozma Markaziy Osiyo madaniy muhitidagi nujumiy tasavvurlar va astrologik an’analarni o‘rganish uchun muhim hamda qimmatli manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mirsiddiqxon Hashmat adabiy va ijodiy faoliyati bilan bir qatorda, astronomiya (nujum) ilmini o‘rganish va tadqiq etishga ham jiddiy e’tibor qaratgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining sobiq ilmiy xodimi, tadqiqotchi I. Adilovning ma’lumotlariga ko‘ra, Hashmat mazkur ilmning asoslarini buxorolik mashhur olim Ahmad ibn Kalla (vafoti 1314 h./1896–1897-y.)dan ta’lim olgan. Ushbu ma’lumot muallifning ilmiy bilim doirasi keng bo‘lganini hamda o‘z davridagi nujum ilmini chuqur va puxta o‘zlashtirganini tasdiqlaydi.

Matn an’anaviy «Bismillāhi-r-raḥmāni-r-raḥīm» iborasi bilan boshlanadi. Uning muqaddima qismida fors-tojik mumtoz ilmiy va adabiy asarlariga xos uslubda Alloh taologa hamd va sano bayon qilingan. Asarning kirish jumalari quyidagi mazmunga ega:

«Ҳамде, ки эҳсои он дур аз қиёс аст ва саное, ки аз ихотай он зехни фалак...».

Tarjimasi: Hamdki, uning sanog‘i qiyosdan yiroqdir va sanoki, uning ihotasini falakning zehni ham qamrab ololmaydi...

Bunday ibtido o‘sha davr ilmiy va adabiy ta’lifotlariga xos an’anaga to‘la mos kelib, muallifning diniy dunyoqarashi hamda ushbu ilmning sir-asrorlaridan chuqur xabardor ekanligini ifodalaydi.

Qo‘lyozma muallifning o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan bo‘lib, uning yozilgan va yakunlangan aniq sanasi qayd etilmagan. Biroq qo‘lyozmadagi so‘nggi yozuvlar, xususan, 106a-varaqda hijriy 1329-yil (milodiy 1911-yil) sanasi bilan belgilangan qaydga asoslanib, asar XX asr boshlariga mansub, degan xulosaga kelish mumkin. Qo‘lyozma 115 varaqdan iborat bo‘lib, sahifalarining o‘lchami 25 × 31 sm ni tashkil etadi [2].

Tadqiq etilayotgan qo‘lyozma kutubxona katalogida 8935-raqam ostida “Daftari nujum” nomi bilan ro‘yxatga olingan bo‘lib, uning tuzuvchisi Mirsiddiqxon Hashmat hisoblanadi. Qo‘lyozma mazmunan, asosan, sayyoralar, Quyosh va Oyning harakati, shuningdek, Quyosh hamda Oy tutilishlari bilan bog‘liq masalalarga, ya’ni ilmi nujumga bag‘ishlangan. Asar matnida, shuningdek, tole’nomalar namunalari hamda munajjimlik xususiyatiga ega qaydlar ham uchraydi. Bir qator o‘rinlarda muallif milodiy II asrda yashagan Ptolemeyning

astronomik nazariyalariga murojaat qilgan. Bu holat Sharq ilmiy muhitida Qadimgi Yunon ilmiy merosi va klassik manbalaridan samarali foydalanilganini yaqqol ko'rsatadi.

Struktur jihatidan mazkur qo'lyozma tarqoq va tartibsiz tuzilgan bo'lib, undagi qaydlar muayyan tizimga bo'ysunmagan holda, shaxsiy daftar ko'rinishida jamlangan. Qo'lyozmadagi yozuvlar turli sanalarda qayd etilgan bo'lib, 38a-varaqdagi ma'lumotlarga ko'ra, undagi eng so'nggi qayd hijriy qamariy 1331-yilga (milodiy 1912–1913-yillar) to'g'ri keladi.

Matn «Bismillāhi-r-raḥmāni-r-raḥīm» iborasi bilan boshlanadi va uning dastlabki jumalari quyidagicha keltirilgan: «*Махфӯ намонад, ки чун дар сиюми асад баъзе савр ниҳоят рӯ намуд ва қабл аз он ҳам хавфи кулӣ...*».

Tarjimasi: Maxfiy qolmasinkim, chun asad oyining o'ttizinchi kuni ayrim savr nihoyat yuz ko'rsatdi va undan avval ham umumiy xavf...

Qo'lyozma shikasta nasta'liq xatida ko'chirilgan bo'lib, Qo'qon ishlab chiqarishidagi qog'ozga bitilgan. Mazkur nusxa muallifning o'z qo'li bilan yozilgan avtograf hisoblanadi. Qo'lyozma 78 varaqdan iborat. Varaqlarning o'lchami taxminan 17×31 sm ni tashkil etadi. Ushbu xususiyatlar qo'lyozmaning ham xattotlik uslubi, ham tashqi bezagi jihatidan mazkur davr Markaziy Osiyo kitobat an'anasiga mansubligini yaqqol ko'rsatadi [1].

2932/1-raqamli “Qaydho oid ba nujum” qo'lyozmasi Hashmat Buxoriy qalamiga mansub bo'lgan asarlardan biridir. Mazkur qo'lyozma tarqoq qaydlardan iborat bo'lib, unda nujum ilmi va uning ahkomiga oid masalalar, jumladan, Quyosh, Oy hamda sayyoralarning falak burjlaridagi harakati tahlil qilingan. Shuningdek, astronomik hodisalar - xusuf (Oy tutilishi) va kusuf (Quyosh tutilishi) haqida ham izohlar berilgan.

Asarning yana bir qismida 1331/1912–1334/1916-yillar uchun tole'nomalar tuzish usullari bayon etilgan. Matn tarkibida turli mavzularga bag'ishlangan she'riy parchalar ham keltirilgan.

Matn boshida «Bismillāhi-r-raḥmāni-r-raḥīm» iborasidan soʻng quyidagi qayd uchraydi: «Зухури зузанаб дар шаби душанбе, мутобиқ ба 15-уми муҳарраммулҳароми санаи 1332 ба бақарини сурати зуҳур».

Tarjimasi: 1332 hijriy yil muharram oyining 15-kuni, dushanba kechasida zuzanabning (dumli yulduzning) paydo boʻlishi haqida qayd.

Qoʻlyozma shikasta nastaʼliq xatida koʻchirilgan boʻlib, Qoʻqonda ishlab chiqarilgan och tusli mahalliy qogʻozga bitilgan. Nusxa muallifning oʻz qoʻli bilan tahrir qilinib, koʻchirilgan. Asarning yozilish davri 1331/1912–1334/1916-yillarni qamrab oladi [2].

Qoʻlyozma 1b–48a varaqlarni oʻz ichiga olib, jami 48 varaqdan iborat. Varaqlarning oʻlchami $25,5 \times 30,5$ smni tashkil etadi.

Mazkur qoʻlyozma «**Toleʼnoma**» nomi bilan maʼlum boʻlib, 2932/4 inventar raqami ostida roʻyxatga olingan. Uning tuzuvchisi Mirsiddiqxon Hashmati Buxoriy hisoblanadi. Asarda toleʼnoma tuzish uchun maxsus jadval keltirilgan boʻlib, u erkaklar va ayollar uchun alohida tuzilgan hamda 12 ustundan iborat.

Matn «Bismillohi-r-rahmoni-r-rahim» iborasidan soʻng arab tilidagi «*Manqul min Zij ul-Iqbol, jadvalu sihomi-t-toleʼ*». (*Zij ul-Iqbol*) asaridan koʻchirilgan toleʼ va sahmlar jadvali) jumlasini bilan davom etadi. Qoʻlyozma shikasta nastaʼliq xatida koʻchirilgan boʻlib, Qoʻqon ishlab chiqarishiga mansub och rangli qogʻozga bitilgan. Nusxa muallifning oʻz qoʻli bilan koʻchirilgan. Asarning yozilish davri hijriy 1331–1334-yillar (milodiy 1912–1916-yillar)ga toʻgʻri keladi. Qoʻlyozma hajmi 3 varaqni (118b–120a varaqlar) oʻz ichiga oladi. Qoʻlyozmaning oʻlchami $25,5 \times 30,5$ smni tashkil etadi.

«Istixroji taqvim» nomi bilan 2932/2-raqam ostida qayd etilgan ushbu qisqa risola Mirsiddiqxon Hashmat qalamiga mansub boʻlib, turli taqvim tizimlari oʻrtasida sanalarni oʻzgartirish (konvertatsiya qilish) masalasiga bagʻishlangan. Muallif unda astronomik jadvallar maʼlumotlariga asoslangan holda sanani bir taqvimdan boshqa taqvimga oʻtkazishning usullari va hisob-kitob qoidalarini batafsil bayon etadi. Asar mazmuni astronomiya (nujum) ilmi bilimlarining taqvim tuzish tizimi hamda vaqt hisob-kitoblaridagi amaliy ahamiyatini yaqqol aks ettiradi.

Matn «Bismillohi-r-rahmoni-r-rahim» iborasi bilan boshlanadi. Soʻng muqaddima quyidagi jumla bilan davom etadi: *«Алҳамду лиллоҳи раббу-л-ъоламин, баъд ин мусаввада дар маърифати истихроҷи тақвим аз зич...»*.

Tarjimasi: Alhamdu lillohi rabbi-l-olamin. Baʼd, ushbu musavvada zij asosida taqvimni istixroj qilishni bayon etish haqidadir...

Nusxa Qoʻqon ishlab chiqarishiga mansub mahalliy oq qogʻozga shikasta nastaʼliq xatida koʻchirilgan. Qoʻlyozma muallifning oʻz qoʻli bilan yozilgan. Matnning ichki maʼlumotlariga asoslanib, u hijriy-qamariy 1331–1334-yillar (milodiy 1912–1916-yillar) oraligʻida tayyorlangan va tartibga keltirilgan, degan xulosaga kelish mumkin. Risola ikki varaqdan (49b–50a) iborat boʻlib, sahifalarining oʻlchami 25,5 × 30,5 sm ni tashkil etadi. Matn hajmining nisbatan kichikligi ushbu asarning ilmiy-amaliy eslatma yoki taqvimni istixroj qilish usullariga bagʻishlangan qisqacha qoʻllanma sifatida tuzilganini koʻrsatadi [6].

Umuman olganda, Mirsiddiqxon Hashmatning ilmiy asarlari nujum va taqvimshunoslik tarixini oʻrganishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ular osmon jismlarining harakati, toleʼnomalarni tuzish tartibi hamda taqvim hisobini yuritish usullari haqida muhim ilmiy maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi.

Xulosa, Mirsiddiqxon Hashmati Buxoroiyning hujjatli asarlari koʻp qirrali ilmiy va adabiy manbalar sifatida tarixshunoslik, matnshunoslik hamda manbashunoslik nuqtayi nazaridan yuksak ilmiy qimmatga ega. Mazkur qoʻlyozmalar nafaqat Movarounnahrning soʻnggi davrida astronomiya, taqvimshunoslik va adabiyotning rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi, balki XX asr boʻsagʻasidagi intellektual muhit hamda kitobat anʼanalarini ham yaqqol yoritib beradi. Shu bois, ularni tadqiq etish Buxoroning ilmiy-adabiy muhitining umumiy manzarasini qayta tiklash, shuningdek, Hashmati Buxoroiyning yetuk olim va faol tuzuvchi (murattib) sifatidagi oʻrni hamda ilmiy merosini chuqur anglashda alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Собрание восточных рукописей АН Уз. ССР/Под редакцией А.А.Семенова. – Т. I. Ташкент: Издательство АН Уз. ССР, 1952. – 428 с.

2. Собрание восточных рукописей АН Уз. ССР/Под редакцией А.А.Семенова. – Т. V. Ташкент: Издательство АН Уз. ССР, 1960. – 543 с.
3. Собрание восточных рукописей АН Уз. ССР/Под редакцией А.А.Семенова. – Т. VI. Ташкент: Издательство АН Уз. ССР, 1963. – 735 с.
4. Собрание восточных рукописей АН Уз. ССР. - Том XIII. История. Составители: кандидата исторических наук Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. Издательство “Фан” академии наук Республики Узбекистан. – Ташкент, 1998. – 536 с.
5. Мирсиддиқхони Ҳашмати Бухорой. Тазкират-уш-шуаро. (аз рӯи нусхаи 2728) Таҳия ва тавзеҳи Илҳом Эшонзодаи Насафӣ. - Хучанд: Ношир, 2021. – 332 с.
6. Ҳашмат, Мирсиддиқхон.Тазкират-уш-шуаро. Ганчинаи дастнависҳои шарқии АФ Ҷумҳурии Ўзбекистон ба номи Абӯрайҳони Берунӣ.- Тошканд.- Дастхати №61. – 138 с.
7. Эшонқулов И.. Ҳашмати Бухорой ва тазкираҳои ӯ. Монография - Тошканд: Турон- iqbol нашриёти, 2019. – 200 с.